



DESIGN OF CAPSULAR CLOTHES BASED ON THE QUESTIONNAIRE PROBLEMS OF WOMEN'S GARDENAROB FAST FASHION

Pardaeva Muharram Bazarbaevna

pardayevamuharram@gmail.com

Independent researcher. Tashkent textile and
institute of light industry assistant

Feruza Zahirovna Atakhanova

Professor, Tashkent International University of Chemistry,
in art history doctor of philosophy (PhD), associate professor

f.ataxanova@kiut.uz, fa054129@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19495785>

ARTICLE INFO

Received: 02nd April 2026

Accepted: 09th April 2026

Online: 10th April 2026

KEYWORDS

Capsule wardrobe, fast fashion, sustainable fashion, design, minimalism, impulsive shopping, individuality, Preta-a-porte, sustainable fashion, Haute couture.

ABSTRACT

This article analyzes the problems encountered in women's wardrobes, the negative impact of the fast fashion trend, and the formation of an effective wardrobe based on the concept of capsule clothing. Based on the survey results, consumer habits, needs, and problems in choosing clothing were studied, and recommendations for designing a capsule wardrobe were developed. In the scientific literature, the concept of a capsule wardrobe is interpreted as a system based on creating maximum combinations through minimal clothing. Researchers consider this approach as an important part of the concept of sustainable fashion. Modern research widely covers the negative environmental and social impact of fast fashion. The necessity of forming a conscious shopping culture among consumers was also emphasized. In response to these problems, the concept of a capsule wardrobe provides not only a way to simplify personal style, but also an opportunity to make a more conscious contribution to sustainable development. Information was collected on attitudes, knowledge, and approaches to designing a capsule collection for middle-aged women, its historical development, analysis of approaches to the development of capsule collections of Uzbek brands, the essence of planning the assortment of clothing in a capsule collection in modern and future fashion, studying consumer demand, and its use. A capsule wardrobe is a collection of interconnected, versatile, and limited clothing.

ПРОЕКТИРОВАНИЕ КАПСУЛЯРНОЙ ОДЕЖДЫ НА ОСНОВЕ ОПРОСНИКА ПРОБЛЕМЫ ЖЕНСКОГО ГАРДЕРОБА ФАСТФАШОН

Пардаеву Мухаррам Базарбаевну

pardayevamuharram@gmail.com



Независимый исследователь. Ташкентский текстильный и
институт легкой промышленности ассистент

Атаханова Феруза Захировна профессор

Международного университета Химии в Ташкенте,
по искусствоведению доктор философии (PhD), доцент
f.ataxanova@kiut.uz, fa054129@gmail.com
<https://doi.org/10.5281/zenodo.19495785>

ARTICLE INFO

Received: 02nd April 2026

Accepted: 09th April 2026

Online: 10th April 2026

KEYWORDS

Капсульный гардероб,
фаст-мода, устойчивая
мода, дизайн,
минимализм,
импульсивные покупки,
индивидуальность,
Прета-а-порте,
устойчивая мода, haute
couture.

ABSTRACT

В данной статье анализируются проблемы, возникающие в женском гардеробе, негативное влияние потока фаст-моды и вопросы формирования эффективного гардероба на основе концепции капсульной одежды. На основе результатов опроса были изучены привычки, потребности и проблемы потребителей в выборе одежды, разработаны рекомендации по проектированию капсульного гардероба. В научной литературе понятие капсульного гардероба трактуется как система, основанная на создании максимальных комбинаций через минимальную одежду. Исследователи рассматривают этот подход как важную часть концепции устойчивой моды (sustainable fashion). В современных исследованиях широко освещены негативные экологические и социальные последствия фаст-моды. Также подчеркнута необходимость формирования культуры осознанного покупательского поведения у потребителей. В ответ на эти проблемы концепция капсульного гардероба предоставляет не только способ упростить личный стиль, но и возможность внести более осознанный вклад в устойчивое развитие. Были собраны сведения об отношении, знаниях и подходах к проектированию капсульных коллекций для женщин среднего возраста, его историческом развитии, анализе подходов узбекских брендов к разработке капсульных коллекций, сущности планирования ассортимента одежды в капсульной коллекции в современной и будущей моде, изучении потребительского спроса. Капсульный гардероб - это коллекция гармоничной, универсальной и ограниченной одежды.

SAVOLNOMA ASOSIDA KAPSULALI KIYIMLARNI LOYIHALASH AYOLLAR GARDEROBINING MUAMMOLARI FASTFASHION

Pardayeva Muharram Bazarbayevna

pardayevamuharram@gmail.com



Mustaqil tadqiqotchi. Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat insitituti assistent

Ataxanova Feruza Zahirovna

Toshkentdagi Kimyo xalqaro universiteti professori, san'atshunoslik fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD), dotsent

f.ataxanova@kiut.uz, fa054129@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19495785>

ARTICLE INFO

Received: 02nd April 2026

Accepted: 09th April 2026

Online: 10th April 2026

KEYWORDS

Kapsulali garderob, fast fashion, barqaror moda, dizayn, minimalizm, impulsiv xarid, individuallik, Preta-a-porte, barqaror moda, yuqori moda.

ABSTRACT

Ushbu maqolada ayollar garderobida uchraydigan muammolar, fast fashion oqimining salbiy ta'siri hamda kapsulali kiyimlar konsepsiyasi asosida samarali garderobni shakllantirish masalalari tahlil qilinadi. Savolnoma natijalari asosida iste'molchilarning kiyim tanlashdagi odatlari, ehtiyojlari va muammolari o'rganilib, kapsulali garderobni loyihalash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ilmiy adabiyotlarda kapsulali garderob tushunchasi minimal kiyimlar orqali maksimal kombinatsiyalar yaratishga asoslangan tizim sifatida izohlanadi. Tadqiqotchilar ushbu yondashuvni barqaror moda (sustainable fashion) konsepsiyasining muhim qismi sifatida ko'rib chiqadilar. Zamonaviy tadqiqotlarda fast fashionning ekologik va ijtimoiy salbiy ta'siri keng yoritilgan. Shuningdek, iste'molchilarning ongli xarid qilish madaniyatini shakllantirish zarurligi ta'kidlangan. Ushbu muammolarga javob sifatida, kapsulali garderob konsepsiyasi nafaqat shaxsiy uslubni soddalashtirish usulini, balki barqaror rivojlanishga yanada ongli hissa qo'shish imkoniyatini ham taqdim etadi. O'rta yoshdagi ayollar uchun kapsulali kolleksiya loyihalashga bo'lgan munosabat, bilim va yondashuvlar, uning tarixiy rivojlanishi, O'zbekistonlik brendlarning kapsulali kolleksiyalarni ishlab chiqishga yondashuvlarning tahlili, zamonaviy va kelajak modasida kapsulali kolleksiyadagi libos assortimentini rejalshtrish mohiyati, xaridorlar talabini o'rganish foydalanish haqida ma'lumot to'plandi. Kapsulali garderob — bu o'zaro uyg'unlashadigan, universal va cheklangan miqdordagi kiyimlardan tashkil topgan kolleksiya hisoblanadi.

KIRISH. Bugungi kunda jahonda yuz berayotgan global o'zgarishlar, halqaro bozordagi tebranishlar, sanoat va texnologiyalarning keskin rivojlanishi, energiya bozorlarida transformatsiya, global ta'minot zanjirlarining qayta

shakllanishi O'zbekistondan ham yangi yondashuvlarni talab etmoqda. Ekologik toza va xavfsiz mahsulotlar dizayni asosida yengil sanoat va matbaa mahsulotlari assortimentini kengaytirish va ishlab chiqarishni rivojlantirish.

Hozirgi kunda moda sanoati dunyodagi eng katta ekologik muammolarni keltirib chiqarayotgan sohalardan biri hisoblanadi.[1]

Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2026-yil 1-yanvar holatiga O'zbekistonning doimiy aholisi soni 38 236 704 kishini tashkil etdi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 693,5 ming kishiga yoki 1,8 foizga oshgan.

Hududlar kesimida doimiy aholi soni eng ko'p bo'lgan viloyatlar:


Samarqand viloyati — 4,3 mln kishi;

Farg'ona viloyati — 4,2 mln kishi.

Eng kam doimiy aholi soniga ega hududlar:

Navoiy viloyati — 1,1 mln kishi;

Sirdaryo viloyati — 946,3 ming kishi. Bir yilda aholi soni 693,5 ming kishiga oshgan. 1-rasm



1-rasm. Tadqiqot materiallari va usullari.

Kapsulali garderob tushunchasi ilk bor XX asrda paydo bo'lib, minimalizm va funkcionallik tamoyillariga asoslanadi. So'nggi yillarda moda sanoatida tezkor ishlab chiqarish va iste'molga asoslangan fast fashion tizimi keng tarqaldi. Bu jarayon kiyim-kechak assortimentining ko'payishiga olib kelgan bo'lsa-da, ayollar garderobida tartibsizlik, ortiqcha xarid va foydalanilmaydigan kiyimlar muammosini keltirib chiqarmoqda. Shu sababli kapsulali garderob konsepsiyasi barqaror va funksional yechim sifatida dolzarb hisoblanadi. Tezkor moda (fast

fashion) tufayli kiyim ishlab chiqarish hajmi ortib bormoqda va bu jarayon tabiiy resurslarning ko'p sarflanishiga, chiqindilar miqdorining oshishiga olib kelmoqda. Ayniqsa, o'rta yoshli ayollar garderobi ko'pincha turli xil kiyimlar bilan to'lib ketadi, ammo ularning hammasi ham muntazam foydalanilmaydi. Bu esa ekologik jihatdan samarasiz iste'mol modelini shakllantiradi.[2] Ilmiy adabiyotlarda kapsulali garderob tushunchasi minimal kiyimlar orqali maksimal kombinatsiyalar yaratishga asoslangan tizim sifatida izohlanadi. Tadqiqotchilar ushbu yondashuvni barqaror moda



(sustainable fashion) konsepsiyasining muhim qismi sifatida ko'rib chiqadilar.

Fast fashion esa qisqa vaqt ichida trendga mos kiyimlarni arzon narxda ishlab chiqarishga yo'naltirilgan tizim bo'lib, u quyidagi muammolarni keltirib chiqaradi:

- ekologik ifloslanish
- ortiqcha ishlab chiqarish
- qisqa muddatli foydalanish

Zamonaviy tadqiqotlarda fast fashionning ekologik va ijtimoiy salbiy ta'siri keng yoritilgan. Shuningdek, iste'molchilarning ongli xarid qilish madaniyatini shakllantirish zarurligi ta'kidlangan. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, asosiy muammo kiyimlar sonida emas, balki ularning moslashuvchanligida. Ayollar gardrobida:

- bir-biriga mos kelmaydigan kiyimlar ko'p
- impulsiv xaridlar ustun
- rejalashtirish yetishmaydi

Bu holat fast fashionning tezkor trendlariga bog'liq. **Fast fashionning salbiy ta'siri**

1. Ekologik ta'sir

- chiqindilar ko'payishi
- resurslar isrofi

2. Iqtisodiy ta'sir

- ortiqcha xarajatlar
- qisqa muddatli foydalanish

3. Psixologik ta'sir

- doimiy yangilikka ehtiyoj
- qoniqmaslik hissi

Shu sababli kapsulali gardrob konsepsiyasi ekologik muammolarni kamaytirishda muhim yechimlardan biri sifatida ko'rilmogda. Ayollar gardrobi, ayniqsa, ushbu jarayondan eng ko'p ta'sirlangan segmentlardan biridir. Ko'plab ayollar gardrobida ko'p

miqdorda kiyim mavjud bo'lishiga qaramay, kundalik hayotda mos kiyim topishda qiyinchilikka duch keladi. Ushbu paradoks zamonaviy moda iste'molining asosiy muammolaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, kapsulali gardrob konsepsiyasi muqobil yechim sifatida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv minimalizm, funksionallik va barqarorlik tamoyillariga asoslanadi. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, iste'molchilar asta-sekin ongli modaga o'ta boshlamogda va kapsulali gardrobni ahamiyatini tushinishmogda.[3]

Mavzuning asosiy qismi. So'nggi yillarda jamoatchilikning ekologiya va barqarorlik muammolariga e'tibori shunchaki trend emas, balki zaruratga aylandi. Resurslarni iste'mol qilish va ommaviy ravishda kiyim-kechak ishlab chiqarish atrof-muhitning ifloslanishi va tabiiy resurslarning kamayishi kabi jiddiy ekologik oqibatlarga olib keladi. Ushbu muammolarga javob sifatida, kapsulali gardrob konsepsiyasi nafaqat shaxsiy uslubni soddalashtirish usulini, balki barqaror rivojlanishga yanada ongli hissa qo'shish imkoniyatini ham taqdim etadi. Muhim jihat - sifatdan boshlaymiz. Kapsulali gardrob doirasida aynan chidamliligi va universalligi bilan ajralib turadigan buyumlarni xarid qilishga urg'u beriladi. Bu shuni anglatadiki, ko'plab arzon va sifatsiz buyumlar o'rniga foydalanuvchi uzoq vaqt xizmat qiladigan va o'z ahamiyatini yo'qotmaydigan cheklangan miqdordagi sifatli kiyimlarni tanlaydi. Bunday yondashuv chiqindilar hajmini kamaytirishga imkon beradi, chunki har bir narsa qoladi, muomalada oddiy



do'kondagi o'rtacha xaridga qaraganda ancha uzoqroq. Ehtimol, bitta yaxshi narsa oxir-oqibat chiqindixonaga tashlanadigan ko'plab arzon muqobillarga qaraganda kamroq ifloslanish keltirib chiqarishi haqida o'ylab ko'rish kerakdir. Barqaror materiallarni tanlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Kapsulali garderob ekologik standartlarga rioya qilingan holda ishlab chiqarilgan matolardan foydalanishni rag'batlantiradi, bunga organik va qayta ishlangan materiallar kiradi. Masalan, pestitsidlardan foydalanmasdan yetishtirilgan paxta yoki qayta ishlangan plastik idishlardan olingan tola zamonaviy, qulay va eng muhimi, ekologik toza kiyim. Kapsulali garderob konsepsiyasiga qo'shilish orqali siz nafaqat garderobingizni boyitasiz, balki barqaror rivojlanish me'yorlariga rioya qilishga intilayotgan ishlab chiqaruvchilarni ham qo'llab-quvvatlaysiz. Eskirgan buyumlar bilan ishlash yana bir muhim jihat bo'lib, u kapsulali garderob kontekstida ko'rib chiqiladi. Qayta ishlash va ikkilamchi foydalanish nafaqat ijtimoiy ongda, balki moda muhitida ham dolzarb bo'lib bormoqda. O'zinikini yo'qotgan kiyimlardan xalos bo'lish dolzarblikni ko'pchilik garderobni yangilash sifatida qabul qiladi. Biroq, kapsulali yondashuv yanada barqaror qarashni taklif etadi: modadan chiqib ketgan narsalarni shunchaki tashlab yuborish o'rniga, ularni yangilash, qayta ko'rib chiqish mumkin, yoki hatto yangi narsaga qayta ishlov berish. Har bir qayta ko'rib chiqilgan narsa nafaqat o'ziga xos bo'lib qoladi, balki o'zida tarixni ham saqlaydi, bu esa narsalarga alohida qiymat beradi. Kapsulali garderob konsepsiyasining


asosiy jihati iste'molchining mas'uliyatini anglashdir. Kiyimda minimalizm tamoyillarini qo'llash har bir kishiga imkon beradi, o'z odatlarimiz va tanlovlarimizni qayta ko'rib chiqishimiz kerak. Bu o'z uslubingizga chuqurroq, mazmunli yondashuv uchun ongsiz xaridlar va o'tkinchi tendentsiyalardan voz kechishda namoyon bo'lishi mumkin. Hozirgi vaziyat bizni nafaqat tashqi ko'rinishimiz haqida o'ylashga, balki qarorlarimiz atrofimizdagi dunyoga qanday ta'sir qilayotgani haqida o'ylashga undaydi. Shunday qilib, kiyimni ongli ravishda tanlash va yanada barqaror modaga yondashuv nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy mas'uliyatga ham aylanmoqda.[4]

Natijalar va ularning muhokamasi. To'qimachilik sanoatida ekologik kiyimlarni ishlab chiqarishda yana ko'plab parametrlarni hisobga olish kerak. Tabiiy kiyimlar ekologik toza va barqaror manbalardan tayyorlangan kiyimlardir. Tadqiqotda so'rovnoma ishbilarmon ayollar, o'rta yoshli talaba ayollar, umumiy o'rta yosh ayollar va uy beka ayollarning turmush tarzini, garderobidagi juda ko'p keraksiz kiyim-kechaklari, ularning ijtimoiy statusini, estetik qiziqishlarini, didi va turli kiyimlarni kiyish vaziyatlarini, kapsulali kolleksiya yaratish uchun tadqiqot qilishga qaratildi. Savolnoma ishlab chiqildi, u 27ta savol punktdan tuzilgan. Hammasi bo'lib hozirgi kunda 150 dan ortiq ayollardan so'rovnoma o'tkazildi. Bu ayollar o'qituvchilar, xususiylar, tadbirkorlar, tijorat vakillari, shifokor, uy bekasi va talaba bo'lib tahsil olayotgan ayollar tashkil qiladi. So'rovnomada ishtirok etgan ayollar yoshi 20 yoshdan va undan yuqori yoshdagi ayollardir.



Tadqiqot jarayonida o'rta yoshli ayollar orasida savolnoma o'tkazildi. Tadqiqotda 20 yoshdan 55 yoshgacha va undan yuqori yoshdagi ayollar savolnomada qatnashdi. O'rta yoshdagi ayollar uchun kapsulali kolleksiya loyihalashga bo'lgan munosabat, bilim va yondashuvlar, uning tarixiy rivojlanishi, O'zbekistonlik brendlarning kapsulali kolleksiyalarni ishlab chiqishga yondashuvlarning tahlili, zamonaviy va kelajak modasida kapsulali kolleksiyadagi libos assortimentini rejalshtrish mohiyati, xaridorlar talabini o'rganish foydalanish haqida ma'lumot to'plandi. Anketa savolnomasiga statistik usullar vositasida ishlov berildi. Anketada

ayollarning yashash joyi, ishtimoiy ahvoli, garderobidagi kiyim turlari, kiyinish uslubi, modaga munosabati, mato turi va kiyim haqidagi umumiy savollarning tahlili bo'yicha savollar berilgan. Respodent yosh tahlili shuni ko'rsatdiki, 20-29 yoshdagi ayollar 35%, 30-45 yoshdagi ayollar 40%, 46-55 yoshdagi ayollar 15% ni va boshqa yoshdagi ayollar 10% tashkil qiladi. 30-45 yosh oralig'idagi ayollar o'rta yoshli ayollar ko'proq ishtirok etdi. Olingan ma'lumotlar tahlil qilinib, garderobdagi ortiqcha kiyimlar ekologik muammolarga qanday ta'sir ko'rsatishi o'rganildi. 1-diagramma




1-diagramma

Tadqiqotimizda respodentlardan sizning modaga bo'lgan munosabatingiz savolnomasida ishtirok etgan ayollardan olingan ma'lumotlar tahlil qilinib,

kapsulali kolleksiyadagi liboslarga ko'proq sifatliylilik, qulaylik, chidamliylilikka e'tibor berilishi 50% tashkil qildi. 2-diagramma




Sizning modaga bo'lgan munosabatingiz?



2-diagramma

Respodentlardan Kapsulali kolleksiyaga qanchalik tez-tez duch kelasiz savolnomasiga olingan ma'lumotlar tahlil qilinib, tadqiqotdagi

ayollar har kuni 15%, ba'zida 30%, kamdan-kam 25%, umuman duch kelmaganman 15%, boshqa 10% javobni tanlashdi. 3-diagramma




3-diagramma

Respodentlardan garderobingizda kapsulali kolleksiyadagi liboslaringizning qaysi ko'proq mavsumda bo'lishini xoxlaysiz savolida

ayollar bahor yoz mavsumiga 60%, qish-kuz mavsumiga 40% ni tanlashdi, olingan ma'lumotlar tahlil qilinib bahor-yoz mavsumi uchun kolleksiya tanlandi. 4-diagramma



Garderobingizda kapsulali kolleksiyadagi liboslaringizning qaysi ko'proq mavsumda bo'lishini xoxlaysiz?




4-diagramma

Responentlardan quydagi kapsulali kolleksiyada tikilgan qaysi uslub (still) sizga ko'proq yoqadi savolnomasida ayollar, klassik uslub 35%, kundalik uslub 30%ni, romantik uslub 10%,

bayramona uslub 8%, boshqa uslublar 14% tanlashdi, olingan ma'lumotlar tahlil qilinib klassik uslubdagi kapsulali kolleksiyasiga e'tibor qaratiladigan bo'ldi. 5-diagramma

Kapsulali kolleksiyada tikilgan qaysi uslub(still)sizga ko'proq yoqadi?



5-diagramma


Responentlardan garderongizda kapsulali kolleksiyalarning qanday

ranglari bo'lishini xoxlaysiz savolnomasida ayollar, to'q ranglarda 30%ni, och ranglarda 28%, yorqin



ranglarda 27%, boshqa ranglarda 10% ni tashkil qildi, olingan ma'lumotlar tahlil qilinib kapsulali kolleksiya uchun to'q

ranglar, qisman och va yorqin ranglar ham tanlanadigan bo'ldi. 6-diagramma




6-diagramma

Respondentlardan kapsulali kolleksiyada libosning qaysi kiyim turini kiyishni hohlardingiz savolnomasida ayollar, kostyum+shim+aksesuarlar 30%, kostyum+yubka+aksesuarlar 23%,

kostyum+koylak+aksesuarlar 26%, boshqa liboslar 15% tanlandi, olingan ma'lumotlar tahlil qilinib o'rta yoshli ayollarga kolleksiya uchun kostyum+shim+ko'ylak+aksesuarlarga e'tibor qaratiladigan bo'ldi. 7-diagramma



Kapsulali kolleksiyada libosining qaysi kiyim turini kiyishni hohlardingiz?




7-diagramma

Respondentlardan kiyim tanlashda asosan nimaga ko'proq e'tibor berasiz savolnomasida olingan ma'lumotlar tahlil qilinib, ayollar

rangiga, guliga 15%, mato tarkibiga 25%, fasoniga qulayligiga 45%, narxiga 5% tanlashdi, kolleksiya uchun fason qulayligi va mato tarkibiga e'tibor qaratiladigan bo'ldi. 8-diagramma

Kiyim tanlashda asosan nimaga ko'proq e'tibor berasiz? (bir nechta variantni tanlash mumkin)



8-diagramma


Respondentlardan kapsulali kolleksiyadagi kiyimlarning asilligini saqlash uchun qaysi texnologiyalar yoki

mato ishlab chiqarish usullarini muhim deb hisoblaysiz savolnomasida, ayollar qo'l mehnati asosidagi mato ishlab chiqarish 12%, ekologik va barqaror



texnologiyalar 24%, raqamli texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish 20%, matoni mustahkamlash va chidamliyligini oshirish 25% tanlashdi,


olingan ma'lumotlar tahlil qilinib, kolleksiyaning matosini mustahkamlash va chidamligini oshirish maqsad qilib olindi. 9-diagramma



9-diagramma

Respondentlardan kapsulali kolleksiyadagi zamonaviy modaga uyg'unlashtirish orqali original uslubni saqlashga harakat qilishda qaysi jihatlarga e'tibor berishi lozim savolnomasida, ayollar an'anaviy uslublarni modernizatsiya qilish 23%,

global moda bilan uyg'unlashtirish 20%, zamonaviy moda 25%, ranglar bilan D3da 10%, boshqa deyilganiga 18% tanlandi, olingan ma'lumotlar tahlil qilinib, kapsulali kolleksiyasiga zamonaviy moda yo'nalishlari asosida kiyimlar ta'nanidan bo'ldi. 10-diagramma






10-diagramma

Respodentlardan kapsulali kolleksiyani loyihalashda dizaynerlar qaysi davrdagi urf bo'lgan libos bichimlariga ko'proq e'tibor berishini hohlardingiz savolnomasida, olingan ma'lumotlar tahlil qilinib, ayollar 50-60

yillarda urf bo'lgan bichimlardan 12%, 90-yillarda urf bo'lgan bichimlardan 17%, D3da urf bo'lgan bichimlardan 15%, 2025-yillarda urf bo'lgan bichimlardan 26%, boshqa 22% tanlandi, kolleksiya chun 2025-yil bichimlaridan foydalaniladi. 11-diagramma




11-diagramma

Respodentlardan kapsulali kolleksiyani loyihalashda dizaynerlar qaysi davrdagi urf bo'lgan libos bichimlariga ko'proq e'tibor berishni hohlardingiz savolnomasida, olingan ma'lumotlar tahlil qilinib, kundalik kiyimlarda ishlatish Preta-a-porte 18%, Haute couture kolleksiyalarini yaratish 23%, faqat madaniy tadbirlar uchun

16%, klassik uslubidagi kiyimlar 19%, boshqa uslubdagi kiyimlar 18% tanlandi, "Haute couture" inglizcha atamasi fransuz tilidan olingan bo'lib u so'zma-so'z yuqori tikuvchilik yoki yuqori darajadagi liboslar tikish degan ma'noni anglatadi, bu eksklyuziv tikiladi va kapsulali kolleksiyasida ko'proq e'tibor qaratiladi.[5] 12-diagramma

Kapsulali kolleksiyani loyihalashda dizaynerlar qaysi davrdagi urf bo'gan libos bichimlariga ko'proq etibor berishini hohlardingiz?




12-diagramma

Respodentlardan kapsulali kolleksiyadagi liboslardagi o'rta yoshli ayollar qanday rang va bichimdagi liboslarni kiyishni xohlardingiz savolnomasida, olingan ma'lumotlar tahlil qilinib, och ranglardan+sport liboslardan 18%, yorqin

ranglardan+kundalik liboslardan 38%, to'q ranglardan+klassik bichimli liboslardan 36%, boshqa uslub va ranglardan 10% tanlashdi, kapsulali kolleksiya uchun yorqin ranglardan+kundalik liboslardan yaratiladi. 13-diagramma

Kapsulali kolleksiyadagi liboslardagi o'rta yoshli ayollar qanday rang va bichimdagi liboslarni kiyishni xohlardingiz?



13-diagramma

Kiyimning inson tanasiga mosligi, harakat erkinligi, gigienik xususiyatlari va himoya funksiyalari. Kiyim dizaynerlari uchun eng muhim vazifa —

funktsionallikni (qulaylik) estetika (go'zallik) bilan muvozanatlash, ya'ni amaliy va chiroyli kiyim yaratish.[6] Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'rta yoshli ayollar garderobida ortiqcha



kiyimlar mavjud bo'lib, bu ekologik muammolarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.[7] Tadqiqot natijasida o'rta yoshdagi ayollar orasida savolnoma o'tkazilib, ularning kiyim xarid qilish, garderobdagi muammolar va moda uslubidagi kiyimlardan foydalanish darajasi o'rganildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, ko'plab kiyimlarning kam foydalanilishi kapsula gardrobida kiyimlar sonini optimallashtirish, resurslardan samarali foydalanish hamda ekologik barqarorlikni ta'minlashga yordam beradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, kapsulali gardrob an'anaviy iste'molga oddiy muqobil emas, balki onglik, sayyoraga g'amxo'rlik va shaxsiy uslubni o'zida mujassam etgan butun bir falsafadir. Ortiqchalik va jamg'arishdan voz kechib, biz nafaqat shikafda, balki ongda ham atrof-muhitni yaxshilashga hissa qo'shadigan muhimroq qarorlar uchun joy ochamiz. Bu konsepsiya haqiqiy hissaga aylanadi, barqaror rivojlanishga, shuningdek, har birimizga moda sohasidagi ijobiy o'zgarishlarning bir qismiga aylanish imkonini beradi. Bunday yondashuv bizga nafaqat tanlash erkinligini beradi, balki yaratadi shaxsiy o'sish va global kontekstdagi o'z rolini anglash imkoniyati.[4] Kapsulali gardrob — bu o'zaro uyg'unlashadigan, universal va cheklangan miqdordagi kiyimlardan tashkil topgan kolleksiya hisoblanadi. Ushbu yondashuv:

- kiyimlar sonini kamaytiradi;
- gardrobni funksional qiladi;
- ortiqcha xaridlarni kamaytiradi;
- ekologik barqarorlikni ta'minlaydi.

O'rta yoshli ayollar uchun kapsulali gardrob ish, kundalik hayot va ijtimoiy

tadbirlar uchun mos keladigan qulay kiyim kombinatsiyalarini yaratish imkonini beradi. **Kapsulali gardrob konsepsiyasi**

Kapsulali gardrob – bu o'zaro uyg'unlashadigan, cheklangan miqdordagi kiyimlardan tashkil topgan tizimdir.

Asosiy elementlar:

- bazaviy kiyimlar
- neytral ranglar
- universal dizayn

Afzalliklari:

- vaqtni tejaydi
- xarajatni kamaytiradi
- ekologik foyda keltiradi

Kapsulali gardrobni loyihalash tamoyillari

Savolnoma natijalariga asoslanib, quyidagi dizayn tamoyillari tavsiya etiladi:

1. **Minimalizm** – asosiy kiyimlar sonini cheklash
2. **Universallik** – har bir kiyim bir nechta kombinatsiyada ishlatilishi
3. **Rang uyg'unligi** – neytral va mos ranglar tanlash
4. **Sifat ustuvorligi** – uzoq muddat xizmat qiladigan materiallar
5. **Individuallik** – foydalanuvchining turmush tarzi va ehtiyojlariga moslashuv

Amaliy tavsiyalar

- Har bir xariddan oldin uning kamida 3 xil kombinatsiyada ishlatilishini tekshirish
- Trendlarga emas, funksionallikka e'tibor berish
- Sifatli materiallarni tanlash
- Mavsumiy kapsulalar yaratish.

Kapsulali gardrob nafaqat individual darajada, balki global moda sanoati uchun ham muhim yo'nalish hisoblanadi.



Ushbu yondashuv barqaror rivojlanish tamoyillariga mos keladi.

Natijalar va muhokama

Savolnoma natijalari quyidagilarni ko'rsatdi:

- Respondentlarning aksariyati gardierobida ko'p kiyim bo'lishiga qaramay, "kiyishga hech narsa yo'q" muammosiga duch keladi.
- Fast fashion mahsulotlari tez-tez xarid qilinadi, ammo ularning sifati va uzoq muddat xizmat qilishi past baholanadi.
- Ko'pchilik ayollar kiyimlarni uyg'unlashtirishda qiyinchilikka duch keladi.

Kapsulali gardierob ushbu muammolarni hal qilishda samarali yechim bo'lishi mumkin. U quyidagi afzalliklarga ega:

- kiyimlar o'zaro moslashuvchanligi
- ortiqcha xaridlarning kamayishi
- vaqt va mablag' tejalishi
- ekologik barqarorlikka hissa qo'shish

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, fast fashion ayollar gardierobida tizimsizlik va ortiqcha iste'mol muammolarini keltirib chiqarmoqda. Kapsulali gardierob esa ushbu muammolarga samarali yechim sifatida xizmat qilishi mumkin. Savolnoma asosida ishlab chiqilgan tavsiyalar kelgusida kiyim dizayni va iste'mol madaniyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. [8-9-10]

References:

1. <https://oz.sputniknews.uz/20260129/uzbekistan-aholi-son-55353859.html>
2. <https://www.thevaultuwmadison.com/blog/the-capsule-answer-to-the-fast-fashion-question>
3. Joy, A. et al. (2012). Fast Fashion, Sustainability, and the Ethical Appeal of Luxury Brands.
4. Артем Демиденко Капсульный гардероб: Секреты минимализма в одежде 38 bet. <https://www.litres.ru/book/artem-demidenko/kapsulnyy-garderob-sekretы-minimalizma-v-odezhde-71484772/> Barqarorlik va ekologik mas'uliyat
5. https://en.wikipedia.org/wiki/Haute_couture
6. Назарова, Д.Ш., & Исмоилова, З.А. Кийим дизайнида функционалик ва эстетика уйғунлиги. — Тошкент: "Fan va texnologiya", 2020. — 112 б. (Бетлар 56 71).
7. https://en.wikipedia.org/wiki/Capsule_wardrobe
8. Fletcher, K. (2014). Sustainable Fashion and Textiles.
9. Gwilt, A. (2020). A Practical Guide to Sustainable Fashion.
10. Niinimäki, K. (2018). Sustainable Fashion in a Circular Economy.